



SOG'LOM ISLOM AQIDASI VA ADASHGAN FIRQALAR

Sheraliyev Jo'rabek O'lmasvoy o'g'li

O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi «Islomshunoslik» yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10- mart 2023 yil

Ma'qullandi: 15-mart 2023 yil

Nashr qilindi: 18-mart 2023 yil

KEY WORDS

Ahli sunna val-jamoa, firqa, aqida, Xavorij, Mo'tazila, Moturidiya, Hanafiy, Molikiy, Azoriqa, Najdot, Sufriya, Vosiliya, Nazzomiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada islom dini niqobi ostida paydo bo'lgan oqim va firqalarning yuzaga kelishi, ularning botil aqidalari, faoliyatlari, o'z davrida davlat va jamiyat hayotida katta ta'sir ko'rsatgan adashgan g'oyalari bilan sodda xalqni tug'yonga ketishiga sabab bo'lgan firqalar xronologik tarzda keltirib o'tilgan.

Shunigdek, turli firqalarni yolg'on da'volari ortidagi asl maqsadlari bayon etilgan.

Islomdagi yo'nalishlar soni tarixiy manbalarda turlicha berilgan. Ulardan asosiy uchta: sunniylik, xoriylik va shialik haqida to'xtalish maqsadga muvofiqdir. Islomdagi yo'nalish deganda muayyan e'tiqodiy masala asosida birlashgan musulmonlar majmuasi tushuniladi. Masalan, sunniylik yo'nalishi sunnat va jamoat asosida, xoriylik ajralib chiqish va qarshilik ko'rsatish, shialik esa Ali (roziyallohu anhu) va uning avlodlarini haddan ortiq e'zozlash asosida birlashgan. Avvalo, sunniylik mohiyati bayon etiladi.

Payg'ambarimizdan naql qilingan musulmon ummatining 73 firqaga bo'linib ketishi haqidagi mashhur hadisda, faqat bir yo'nalish – u zotning sunnatlarini mahkam ushlagan va sahobalari yo'lidan yurgan kishilargina najot topishi bayon qilingan. Ulamolar najot topuvchi yo'nalish bu "Ahli sunna val-jamoa" ekaniga ittifoq qilishgan. "Ahli sunna" iborasi Muhammad (alayhissalom) sunnatlariga ergashuvchilarni, "val-jamoa" esa musulmonlarning ko'pchiligi ortidan yuruvchilarni bildiradi. Demak, "Ahli sunna val-jamoa" - sunnatga va jamoaga ergashuvchilar degan ma'noni anglatadi. Haqiqatan, bugungi kunda musulmonlarning aksari, ya'ni 92.5 %i mazkur yo'nalishga mansubdir. «Ahli sunna val-jamoa» nomini qisqartirib, «sunnaylik yo'nalishi» deb ham yuritiladi. Aqida borasida moturudiya yoki ash'ariya ta'limotiga fiqhda esa to'rt mazhab: hanafiy, molikiy, shofei va hanbaliy mazhablaridan biriga mansub bo'lgan musulmonlardan tashkil topgan jamoa sunniylik yo'nalishini tashkil qiladi. Bu yo'nalish e'tiqod borasida quyidagi tamoyillarga tayangan: Allohning barcha ismlari va sifatlariga, barcha payg'ambarlarga, farishtalarga, muqaddas kitoblarga, oxirat kuniga, yaxshilik va yomonlik taqdir etilishiga, o'lgandan so'ng qayta tirilishga ishonish va til bilan iqrar etish. Muhammad (alayhissalom)ning sunnatlariga ergashish, sahobalarning barchasini birdek hurmat qilish, tobeinlar ehtiromini o'rniga qo'yish, rahbarlarga itoat etish, musulmonlarga oqibat ko'rsatish, jamoadan, ya'ni ko'pchilikdan ayri bo'lmaslik, biror insonni kofirlikda ayblashga intilmaslik, o'zga din va e'tiqod vakillariga nisbatan bag'rikenglik ko'rsatish, yaxshi ishlarga tavsiya

etish va yomon ishlardan qaytarish, savob ishlarga intilish va gunoh ishlardan qochish, gunohga bee'tibor bo'lmaslik, ammo gunohkorni imonsizga chiqarmaslik, biror insonga jannatiy deb shohidlik bermaslik va biror insonni do'zaxiy deb guvohlik bermaslik, umid va qo'rquv mutanosibligiga rioya qilish va shuningdek, choryorlarning barchasini qonuniy xalifa sifatida e'tirof etish va olti ishonchli hadislar to'plamlarini tan olish ham sunniylikdagi asosiy mezonlardan hisoblanadi. {1:6-7}

Moturidiya atalmish aqidaviy yo'nalish asos va qoidalarini Abu Mansur Moturidiyning o'zi kashf qilgan emas. Balki aqidaning asoslari, arkonlari va bndlari ungacha ham ma'lum darajada shakllangan edi. Aqida ilmi tobeinlar davridan boshlab, ya'ni hijriy ikkinchi asrda mustaqil fan sifatida zohir bo'la boshlagan. {2:7}

Moturidiy hazratlarining xizmatlari shundan iborat bo'lganki, o'sha davrdagi aqidaviy oqim ta'sirini qirqish, ularning iddaolariga raddiya berish, kuchli va asosli dalillar bilan haqiqiy Islom aqidasini himoya qilish, ilmi kalom, mantiq va munozara qoidalariga rioya qilgan holda xasmlar (da'vogarlar) jaholatiga ilmu- ma'rifat bilan javob qaytarib, chin ixlosli musulmonlar uchun aqidaga doir muhim qo'llanmalar tayyorlab berishni niyat qilgan edilar. Ma'lumki, Ahli Sunna val-Jamoa aqidasi o'sha davrda uchta buyuk shaxs tomonidan himoya qilingan va asosiy ruknlari ishlab chiqilib, shogirdlari va kitoblari orqali musulmonlarga taqdim etilgan.

Ash'ariya yo'nalishi: Ash'ariya ta'limotining asoschisi Abul-Hasan Ali ibn Ismoil Ash'ariy 260/873-yilda Basra shahrida tavallud topgan va 337/935-yilda Bag'dodda vafot etgan. Mashhur sahoba Abu Muso Ash'ariy (roziyallohu anhu) ning avlodi hisoblanadi. Imom Ash'ariy ilk davrda muhaddis va faqihlarning majlislarida qatnashar edi. Basra mo'taziliylari rahbari bo'lmish Abu Ali Juboiydan tahsil oldi hamda aqida ilmini o'rgandi. Shuning uchun ham u mo'taziliylar ta'sirida o'sdi. boshqalar bilan munozara va tortishuvlarni Abul-Hasan o'z zimmasiga olar edi, chunki Juboiy munozarada oqsar edi. 40 yoshigacha mo'taziliylar fikrida bo'ldi. So'ng o'z ustozini bilan ba'zi masalalarda ixtilof qildi. Ulardan biri solih va aslah masalasidir. Basra jome masjidiga chiqib, minbardan turib tavba qilganini e'lon qilib

«Men ilgari e'tiqod qilgan narsalarimni, shu kiyimimni yechganim kabi yechaman»deb kiyimlarini yechdi va o'zi yozgan narsalarini muhaddis va faqihlar jamoasiga berdi. Ash'ariyning yozgan narsalarini o'qib chiqqan ilm Ahllari uni o'zlariga rahnamo qilib oldilar, o'zlari ergashgan ta'limotni uning nomi bilan atab, ash'ariylar nomi bilan mashhur bo'ldilar. {2:11-13}

Imomi A'zam Hanafiy mazhabining egasi Abu Hanifa No'mon ibn Sobit ibn Zutiy, ya'ni Imom A'zam (rahmatullohi alayh) Iroqning Ko'fa shahrida 80/699 yilda tavallud topdilar. U kishi ahli sunna fiqhiy mazhab boshilari ichida eng avval tug'ilganlaridir. {2:29}

Birinchi bosqichda Abu Hanifa kalom ilmiga berilib, bir mutakallim sifatida ushbu sohada katta iqtidor va yuksak malakaga ega bo'lgan bo'lsa ham erishilgan muvaffaqiyatlar uni qoniqtirmadi. Aqid muammolarini aqliy va falsafiy dalillar bilan isbotlash, ya'ni kalom ilmiga berilish yo'lidan emas, balki fiqh, ya'ni huquqshunoslik ilmi va unga tegishli bo'lgan fanlarni o'zlashtirish orqali odamlarga keng ko'lamda xizmat qilish va ularning hayotiy muammolarini yechib berishga erishish imkonini ustun qo'ydi. {2:31}

U o'zidan keyin bir necha vasiyatnoma, "Musnad" nomidagi hadis to'plamlari,

«Fiqhul akbar» nomli aqidaga doir asarlarni qoldirgan. Bulardan tashqari «al-fiqhul- absat, «Kitobul-olim val-mutaallim», «Kitobur-risola», «al-qasidatun-No'moniya»,

«Ma'rifatul-mazohib» nomli asarlari ham bor va ular bizgacha yetib kelgan. Shular qatorida

manba va tadqiqotlarda nusxalari topilmagan boshqa asarlari haqida ham so'z yuritilgan. Hozirgi kunda hanafiylikning jug'rofiy hududi Markaziy Osiyo davlatlaridan boshlab, Xitoy, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Eron, Iroq, Arabiston, Yaman, Misr, Jazoir, Tunis, Marokash Turkiya, Indoneziya va boshqa musulmon o'lkalariga yetib boradi. Abu Hanifa mazhabi aytib o'tilgan mamlakatlarning ayrimlarida asosiy mazhab bo'lsa, ayrimlarida ikkinchi yoki uchinchi o'rinda turadi. {2:33-34}.

Molikiy mazhabi. Ushbu mazhabga 94/713-yil Madinada tug'ilib, 178/795 - yilda o'sha yerda vafot etgan Imom Molik ibn Anas qadimiy Madina huquqiy maktabiga tayanib asos solgan. Uning mashhur «Al-Muvatto» kitobi Molikiy

mazhabining asosi hisoblanadi. U oyat, hadis va ijmoa asoslanib hukm chiqarardi. Madina Ahli ko'pchiligining kelishuvi (Madina shahri olimlarining ijmoi) uning nazarida hukm chiqarish uchun bir hadisga teng edi. Chunki u ushbu shahar Ahlini Payg'ambar va uning sahobalari yo'l-yo'riqlarini mukammal bilib olgan va unga asoslanib amal qilib kelganlar deb e'tibor etardi. Doktor Muhammad Yusuf Muso

«Islom fiqhi tarixi» kitobida shunday yozadi: «Fransiya qonunchiligi o'zining birinchi bosqichlarida Islom fiqhidan, ayniqsa, Molik ibn Anas mazhabidan ko'p narsalarni olgan edi. Ushbu mazhab Mag'rib mamlakatlari va Andalus (Ispaniya)da tarqalgan edi». Hozirgi kunda Molikiy mazhabi Janubiy Misr, Falastin, Sudan, Eritreya, Somali, Liviya, Tunis, Marokash, Markaziy va G'arbiy Afrika, Gambia, Nigeriya, Arabiston yarimorolining sharqiy qirg'oqlari (Quvayt, Bahrayn, Ummon)da tarqalgan bo'lib, Marokash va al-Jazoir sudlarida Molikiy mazhabi asosida ish olib borilsa, Tunis sudlarida Molikiy va hanafiy mazhablari teng huquqli hisoblanadi.{2:34-35-36}

Shofe'iy mazhabi. Ushbu mazhabning asoschisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris ibn Abbos ibn Usmon 150/767-yil G'azoda tugilib, 204/820-yilda Misrda hayotdan ko'z yumgan. U Makka olimlaridan fiqh ilmini o'rganganidan keyin Madinaga borib, Molik ibn Anasning dars xalqasiga qo'shildi. Imom Molik vafotidan keyin Yamanga va undan so'ng Bag'dodga safar qildi. Imom Shofe'iy Iroqda istiqomat qilgan chog'larida Abu Hanifaning shogirdi Muhammad ibn Hasan Shayboniydan fiqh ilmi bo'yicha Iroq ahli yo'nalishini o'rgandi.{2:36} Imom Shofe'iy Molik ibn Anas, Ahmad ibn Hanbal, Avzo'iy va Sufyon Savriy kabi Ahli hadisdan hisoblanadi. U: «Agar mening mazhabimda biron-bir hadisga qarshi biron hukm topsangiz, o'sha hadisni mening mazhabim deb bilgaysiz», - degan edi. Majid Hadduriy fikricha, ayrim kamchiliklarga qaramasdan, shariat bo'yicha Imom Shofe'iyning nazariyasi bir-biriga bog'langan holda bir oliy mantiqiy tizimdan iborat bo'lib, ilk huquqiy maktablar nazariyasidan ustun turadi. {2:37}

Hanbaliy mazhabi. Imom Abu Abdulloh, Ahmad ibn Muhammad ibn Hanbalning onasi O'rta Osiyoning Marv shahridan va otasi Sarahsdan bo'lib, 164/780-yil Bag'dod shahrida tug'ilgan va 241/855-yilda shu yerda hayotdan ko'z

yumib, «Bobi harb» nomli qabristonda dafn etilgan. {2:38} Ahmad ibn Hanbal o'z davrida «imom- ul muhaddisin» (muhaddislar imomi) sifatida tan olinib, «al- Musnad» kitobini tasnif qilish bilan nihoyatda muhim ishga qo'l urdi. {2:39} Ahmad ibn Hanbal o'ziga xos fiqhiy qarashlarga ega edi va shu bilan boshqa mazhab tarafdorlaridan ajralib turardi. Uning aqidasi binoan iymon qalb bilan tasdiqlash, til bilan iqror etish va badan a'zolari bilan amal qilishdir. Amal iymonning juz'i bo'lgani uchun u ko'payib-ozayadi. Gunohi kabiralarga qo'l urgan kishi haqida mo'tazilaga qarshi turib, bunday gunoh qilgan kishi mo'min emas, degan

fikrni rad qiladi. Ahmad ibn Hanbal o'ziga xos uslubga tayangan holda Hanbaliy mazhabiga asos soldi va uni rivojlantirishda Makkada ibn Abbos orqali kurtaklari o'sa boshlagan ilk huquqiy maktabdan foydalandi. U o'z mazhabida Qur'on, sunnat, sahobalar so'zlari va ijmoaga asosiy e'tiborni qaratib, qat'iy zarurat sezmagani holatlardan tashqari qiyosdan foydalanmaydi. Barcha hadislarni, xatto xabari vohid va sahobalar qavlini qiyosdan ustun qo'yadi. {2:39-40}

Mazkur to'rt mazhabdan tashqari mujtahid ulamolardan bir nechalarini mustaqil mazhablar ta'asis etish harakatida bo'lganlar, lekin ularning asarlari to'liq tahrirdan chiqmaganligi va barcha ijtihodiy fatvolari mukammal to'planmaganligi bois ular alohida mazhab muassislari sifatida e'tirof etilmay qolganlar. Ammo ularning ayrim fiqhiy masalalar bo'yicha bildirgan fikrlari va fatvolari tarqoq holda islom manbalaridan keng joy olgan. Shunday mujtahidlardan Hasan Basriy, Mujohid, Ato ibn Abu Raboh, Ibrohim Nahaiy, Imom Buhoriy, Omir ash-Sha'biy, Avzo'iy, Abu Sulaymon az-Zohiriy, Abu Ja'far at-Tabariy va boshqalarni misol keltirish mumkin. {2:40}

Yuqorida keltirib o'tilgan to'rtta fiqhiy va ikkita aqida mazhablari, ya'ni bular hadisda keltirilgan dinda sobit bo'lgan asl Ahli sunna va jamoadir va bunga hamma ittifoq qilgandirlar. Tarixdan ma'lumki, Islom dini xalifalik yillarida keng yoyilib, so'ngra Ummaviylar va Abbosiylar hukmronligi davrida islom sarhadlari kengaydi va bu o'z o'rnida ham ijobiy ham salbiy ko'rinishlarga ega bo'ldi. Aynan shu vaziyatlarda mazxablar katta ahamiyatga ega bo'ldi chunki dinni to'g'ri anglamagan ajam xalqlari va din dushmanlari ya'ni fitnachilarga raddiyalar berish zarur ish

bo'lib qo'lgan edi. Ana shunday vaziyatda ular sobitlarcha turib bera olishganlariga tarix guvoh. Ammo adashgan firqalar ko'payganligi va ular xatto davlat siyosatiga aralasha oladigan ko'rinishga ham yetib, bir muddat o'zlarini dushmanlik g'oyalari musulmonlarga singdirmoqchi bo'lganlar va bu holat bir qancha muddat o'z ta'sirini ko'rsatdi ham. Hozir shulardan o'z davrida katta ahamiyatga ega bo'lgan va davlat siyosatiga aralasha oladigan va musulmon olamiga katta zararlar yetkazgan, adashgan firqalar va ularning g'oyalari bilan tanishib o'tsak.

Xorijiyalar (arab-ajralib chiqqanlar, isyonchilar) Islomdagi ilk oqim tarafdorlari. Xalifa Ali (roziyallohu anhu) bilan Umaviylar o'rtasidagi kurash davomida VII asrning ikkinchi yarmi boshlarida vujudga kelgan. Ular o'z saflariga qo'shilmaganlarni «dindan qaytgan» deb ayblab, ularga qarshi murosasiz kurash olib borgan diniy-siyosiy oqim. Muoviya (roziyallohu anhu) xalifa Ali ibn Abu Tolib hokimiyatini tan olishdan bosh tortib, Damashqda uni xalifa deb e'lon qilgan. Shuningdek, bunday hodisa bo'lishiga asosan 36/656-yili uchinchi xalifa Usmon (roziyallohu anhu) o'ldirilishi munosabati bilan Ali (roziyallohu anhu) va Muoviya (roziyallohu anhu) tarafdorlari o'rtasidagi keskin qarama-qarshiliklar sabab bo'lgan. Marhum xalifaning yaqin qarindoshi bo'lgan Muoviya xalifalik taxtini egallagan Ali (roziyallohu anhu) dan aybdor jinoyatchilarni topshirishni talab qilgan. {2:43}

Xorijiyalar o'zlari tomonidan «dindan qaytgan» deb e'lon qilingan siyosiy va g'oyaviy raqiblarga nisbatan murosasiz bo'lgan. Ularning ta'limotiga ko'ra, xalifa diniy jamoa tomonidan saylanadi va jamoaga bo'ysunadi. Har qanday taqvodor musulmon (hatto qul yoki qora tanli bo'lsa ham) xalifa bo'lib saylanishi mumkin; agar xalifa jamoa manfaatlarini himoya qilmasa vazifasidan bo'shatiladi va hatto qatl etiladi. Manbalarda keltirilishicha, bid'atchilar jamoasi olti toifa bo'lib, ular ham o'z navbatida, bir necha firqalarga bo'linadi. Ularning barchasi bid'atchi,

adashgan va Ahli Sunna val-Jamoadan ajralib chiqqan. Qiyomat kunida ularning joyi do'zaxdadir. Faqat Alloh, taolo tavhidlari sababli do'zaxdan chiqarishni ixtiyor qilganlarigina bundan mustasnodir. {2:44-45} Anas ibn Molikdan rivoyat qilinadi: «Payg'ambarimiz (s.a.v.): «Ummatlarimdan ikki toifa borki, ular uchun shafolatda biror nasiba yo'q. Ular qadariy va xaruriylardir», dedilar». Ibn Abbosdan Sha'biy rivoyat qilib deydi:

«Bilmaydiganlaringni keyinga qoldir, ammo murjia bo'lma. Ahli bayt (ya'ni Payg'ambar (solollohu alayhi vassalam)ning oilalari)ni yaxshi ko'r, ammo shia bo'lma. «Alloh, taolo adolatga, ezgu ishlarga va qarindoshlarga yaxshilik qilishga buyuradi», degin, ammo qadariy bo'lma. Ezgu ishlarga buyurib, yovuz ishlardan qaytar, ammo xaruriy bo'lma» {2:47}

Xavorijlar keyinchalik yigirmaga yaqin firqalarga bo'linib ketgan. Ammo ulardan to'rttasi ma'lum va mashhur bo'lgan: Azoriqa. Nofe ibn Azrassaga ergashganlar. U "Xavorijlardan boshqa hamma kofir, boshqa musulmonlarning da'vatiga javob berilmaydi, so'yishlarini yeb bo'lmaydi, ularga qiz berib, qiz olib bo'lmaydi, oralarida meros bo'lmaydi" kabi fatvolarni chiqargan edi. Aboziya. Abdulloh ibn Abozga ergashganlar. Bu firqa xavorijlar ichidagi eng yuvvosh va murosachi hisoblanadi. Bu firqaga ko'ra, xavorijlar boshqa musulmonlar bilan oila qursa, meros olsa bo'ladi. Aboziylar hozir ham arab mag'ribida yashab kelmoqdalar. {3:29}

Najdot: firqaning asoschisi - Najda ibn Omir Xanafiy Xaruriy Xorijiy. Uning tarafdorlari Najdaning o'z rayi bilan qilgan ishlaridan norozi bo'lib, uni o'zlari qatl qilishgan. Najdani bemaslaxat qatl qilib qo'yib o'z tarafdorlari g'azabiga uchrashiga quyidagi ishlari sabab bo'lgan: Madinaga bostirib kirishgach, Usmon ibn Affon (r.a.)ning qizlaridan birini asir olishgan va uni Najda sotib olib Abdulmalik ibn Marvonga berib yuborgach, bizning dushmanlarimizga berding deb norozi bo'lishgan. Bahraynning Xatif degan mintaqasiga hujum qilib, ayollari ham asirga olingach, o'ljadan "xums", ya'ni Alloh va rasuli ulushini chiqarmay turib asira ayollarni nikohlab olishga ruxsat berganida norozilik avj olgan. Mast qiluvchi ichimlik ichgan kishiga beriladigan ta'zir jazosini bekor qilgan. Sag'ira gunohlarni davomli qilgan kishi mushrik, kabira gunohlarni davomiy qilgan kishi musulmon degan hukmni joriy qilishgan. {2:51}

Sufriya: Xorijiyarning uch asosiy jamoalaridan biri. VII asrning ikkinchi yarmida Basra (Iroq)da vujudga kelgan. Asoschisi - Ziyod ibn Asfar. Jamoa uning otasi ismi («sufri» - asfarning birligi) dan olingan. Bu firqa tarafdorlarini esa sufriylar

deb atashgan. Xalifa Yazid ibn Muoviya davri (61/680-64/683 y.) da sufriylar Basra atrofida Abu Bilol Mirdas raxbarligida qo'zg'olon ko'targanlar. {51}

Shuningdek, ular o'z aqidalarida gunohlarni ikki xilga ajratib ko'rsatganlar. Birinchisi xat belgilangan gunohlar. Masalan zino, o'g'rilik, pok ayolni zinokor deyish, nohaq qon to'kish. Bu ishlarni qilganlarni kofir deyilmaydi, balki zinokor, o'g'ri, qozif, qotil deb ataladi. Ikkinchisi xat belgilanmagan gunohlar, masalan namoz, ro'za, zakot kabi amallarni tark etgan kishi kofir sanalgan. {2:52} Mo'tazila. Bu firqa a'zolari Hasan Basriy rohmatallohi alayhning o'limidan keyin ikkinchi yuz yillikning boshlarida ahli sunna val jamoadan chetga chiqqanlardir. Ularning boshliqlari Amr ibn Ubay (x.144-sanada vafot etgan) va Vosil ibn Atolardir (x.13-sanada vafot etgan). Ularning Ahli Sunnadan chetga chiqib, jamoatdan ajralib o'tirganlariga ishora qilib, Qatoda rohmatallohi alayh va boshqalar: «anaviylar, mo'tazilalar-chetga chiqqanlar», deyishgan. Shundan keyin bu firqa ushbu nom bilan ataladig bo'lib qolgan. {35 shayhim) Vosiliya:

Bu firqaning yetakchisi Vosil ibn Ato bo'lib, u mo'tazila yuksalishining eng birinchi asoschisidir. Vosil ibn Ato G'azzol (i0/699-131/749 y.) Hasan Basriyning shogirdi bo'lgan va aqlga tayanib fikr yuritganligi sabab Ahli Sunna val- Jamoadan ajralib chiqqan. Uning fikricha, «gunohi kabira qilganlar qiyomat kunida ikki manzil o'rtasida bo'lishadi», degan g'oya oldinga surilgan, ya'ni bu ikki manzil orasidagi yana bir manzildir. Vosil azrakiylar fitnasi davrida Hasan Basriyning suhbatlarida faol ishtirok etar edi. Bu davr ulamolari kabira gunoh qiluvchlar ustidan turlicha hukmlarni e'lon qilar edilar. Masalan, bir firqa xoh, kichik, xoh katta gunoh qilgan kishini mushrik deb atasalar, boshqa bir firqa a'zolari azrakiylar kabi gunohkor bandalarni ham mushrik, ham kofir deb atar edilar. {2:66} Ahli Sunna val-Jamoa ulamolari esa kabira gunoh qiluvchi kishini fosiq deb hukm yuritadilar. Bu aqida tobeinlardan boshlab, to bizning asrimizgacha davom etib kelmoqda. Vosil ibn Ato buyuk alloma Hasan Basriyning xaqdoniy ta'limotidan yuz o'girib, xavorijlar aqidasi qo'llab-quvvatlagani uchun ustozining darsidan mahrum bo'lib, o'zi alohida firqa tashkil qilib oladi va bu firqaga Hasan Basriy mo'tazila firqasi deb nom beradi. {2:66-67}

Nazzomiya: Ibrohim ibn Sayyor Nazzom tarafdorlari. Nazzomiylarning nazdida ijmo, xabarul voxid va qiyos hujjat emas, shuningdek, banda qodir bo'lgan narsani Alloh hal qila olmaydi. Ibrohim Nazzom: «Alloh hech narsa emas» e'tiqodidagi har qanday inson uni harakatsizlikda ayblab, vahmiylar qarashlarini inkor qilgan bo'ladi. «Alloh - bir narsa» e'tiqodidagilar esa uni muayyan bir narsaga o'xshatib kofir bo'ladi. Chunki "narsa"ga shubha-gumon va o'zgarish mansub bo'lib,

«Alloh ulardan xoli» deydi. Alloh taolo boshqa narsalarga o'xshamaydigan narsa bo'lib, O'zini vasf qilgan narsa bilan sifatlangan. Allohning ismi va sifatleri bir. Faqat ularning ma'nosigina turlicha. Alloh taolo barcha sifatleri bilan azaliydir. Ism zotsiz, zot esa ismsiz bo'lishi mumkin emas. Chunki ismlar zotlarning aksi, zotlar esa ismlarning aslidir. {2:69}

Bahshamiya. Jubboiyning o'g'li Abu Hoshimga ergashib adashganlarning firqasi shu nom bilan atalgan. Bu atama Abu Hoshim so'zidan olingan bo'lib, «Abu Hoshimiya» so'zining qisqartirilgan shaklidir. Firqaning buzuv adidalaridan ayrimlarini sanab o'tamiz: Inson bir ishni bajarishdan oldin unda bajarish qudrati mavjud bo'ladi, deb e'tiqod qiladi. Vaholanki, Ahli Sunnaga ko'ra, inson bir ishni qilishni iroda qilib bajarishga harakat qilgan paytda qudrat beriladi. Uning so'ziga ko'ra, mukallaf odam toat-ibodat qilmay o'lsa, azoblanadi. Zero, u osiydir va gunoh ish qilishi ham mumkin edi. Kabira gunoh qiluvchilarga ikki hissa jazo berilar emish. Biri gunoh qilgani uchun, ikkinchisi uni tark etmay bajargani uchun. Birovning qilgan ishi uchun boshqa odamning savob yoki gunohga ega bo'lishi. Masalan, muhtojga sadaqa qil deb buyurgan kishi sadaqani olgan kishining minnatdorchilik bildirishiga ega bo'ladi. Gunoh ishni buyurib qildirgan kishi gunoh qilgan kishi tomonidan malomat qilinishi joiz emas. Bir gunohdan tavba qilgan odamning tavgasi, agar u yana gunoh ish qilishda davom etsa, qabul bo'lmaydi, degan aqidasi bor. Vaholanki, banda qaysi gunohidan tavba qilib kechirim so'rsa, o'sha gunohni Alloh taolo kechirishi mumkin. Bunda uning boshqa gunohlardan butunlay qaytgan bo'lishi shart qilinmagan. Gunoh qilishga yaramay qolgan odamning tavgasi ham qabul bo'lmaydi, deb da'vo qilgan. Vaholanki, Abu Hoshimning o'zi doimiy ravishda ichkilik bilan hayot kechirib, mastlik xolida vafotetgan ekan. Alloh taolo borliqni butunlay yo'q qilishi mumkin. Umuman mo'tazila firqasiga e'tiqod qiluvchilarning o'zlari ham bir xil aqidada bo'lishmagan balki biri- birining fikriga qarshi chiqib, aqidaviy ixtilofda umr kechirib o'tishgan. {2:71-72}

Zamonaviy firqalar: Vahhobiylik - XVIII asr o'rtalarida Arabiston yarim orolining markaziy qismi hisoblanmish Najd viloyatida islom dinining sunniylik yo'nalishidagi hanbaliya mazhabi ta'limoti asosida paydo bo'lgan. Uning asoschisi Muhammad ibn Abdulvaxxob hisoblanadi. U 1703-yilda tug'ilib, 1791-yilda vafot etgan. Muhammad ibn Abdulvaxxob qozi oilasida tarbiya topgan. {2:200} Bu oqimning hozirgi zamondagi targ'ibotchilar har qanday xalqni, davlatni kufirda, shirkda ayblab, unga qarshi kurashish uchun qulay fursat izlaydi. Ayniqsa, ular kishilarda murosasizlik, o'zgalar fikrlari, manfaatlariga hurmatsizlik ruhini singdirishga harakat qilayotgani sog'lom fikrlovchi aholining qarshiligiga uchramoqda. Hozirgi zamon vaxxobiylari ham diniy-siyosiy oqim sifatida islom dini paydo bo'lgan paytdagi ibtidoiy shaklga qaytish, bu ta'limotni yer yuzidagi musulmon aholi orasida tarqatish, «Jihod», ya'ni tinch aholiga qarshi ochiqdan- ochiq urush e'lon qilish yo'lini tanlab, targ'ibot-tashviqot qilmoqdalar. Shuning uchun bu jinoiy uyushma a'zolarini vaxxobiylar deyishdan ko'ra Jihodchi- terrorchilar deyish ma'qulroq. {2:201} Soxta salafiylikning zarur aqidaviy, huquqiy va falsafiy asoslarga ega bo'lishi Suriyalik Ibn Taymiya (1263-1328) faoliyati bilan bog'liq. Umri davomida o'zining agressiv qarashlari tufayli to'rt marta (1307, 1309, 1322 va 1326 yillarda) qamoq jazosiga tortilgan va 1328 yilda qamoqxonada vafot etgan bu shaxs harakatning nazariy asoslarini belgilab berganini barcha mutaxassislar e'tirof etadilar, Soxta salafiylik g'oyalari XIX asrning ikkinchi yarmidan o'z oldiga xalifalikka asoslangan islom davlatini barpo etish vazifasini qo'ygan "islohotchilik", "panislomizm" niqobi ostida yangidan jonlandi. «Islohotchi salafiy»lar nomini olgan bunday mafkura targ'ibotchilari hisoblangan Jamoliddin Afg'oniy (1839-1897), Muhammad Abduh (1849-1905) va Abdurahmon Kavakibiy (1854-1902)lar tomonidan «musulmon xalqlarining diniy- siyosiy ittifoqi» g'oyasi ishlab chiqildi. Ular bu g'oya ostida an'anaviy mazhablardan voz kechish va islomning ilk davriga qaytishga da'vat qildilar.

Ma'lumki, «Ahli Sunna val-Jamo'a» e'tiqodiga ko'ra, islom arkonlari beshta: imon, namoz, ro'za, zakot va haj. Soxta salafiylik esa, «Jihod - oltinchi arkon va Jihod qilish har bir musulmon uchun farzi ayndir» degan g'oyani ilgari suradi. Bu o'z navbatida «al-Ixvon al-muslimun», «al-Jihad al-islamiy», «Shabab Muhammad», «at-Takfir val-xijra» kabi o'ta radikal ekstremistik diniy-siyosiy tashkilot va oqimlarning vujudga kelishiga yo'l ochib berdi. {2:204-205-206} Hozirgi kunda ham soxta salafiylik tomonidan e'tirof etilgan mazhablarning tan olinmayotgani, ularning «mazhablar turli ixtiloflarga zamin yaratib, musulmonlarning birligini buzmoqda», degan da'volari ham ularning asl mohiyatini yaqqol namoyon etadi. Zero, bunday iddaolari bilan ular diniy birlik va aqidaviy yakdillikka rahna solmoqda. {2:209} Xizbut-tahrir al-islomiy: Xizbut-tahrir tashkilotiga 1953 yil Isroilda Taqiyuddin Nabahoniy (1909-1979) tomonidan asos solingan. Dastlab, «ixvonul-muslimin»ning Iordaniyadagi bo'limi rahbarlaridan biri sifatida faoliyat ko'rsatgan Nabahoniy uning rahbari Sayyid Qutb bilan o'zaro qarash va muloqotlarida qarama-qarshiliklar kuchaygach «Islom nizomi», «Islomiy olamga qaynoq nidolar», «Xizbut tahrir tushunchasi» kabi risolalari orqali Iordaniya, Livan, Suriya kabi davlatlarda «Xizbut-tahrir» qarashlarini yoyishga kirishadi. Aytish mumkinki, Nabahoniy «ixvonul-muslimin»ning islom davlatini qurish va xalifalik boshqaruvini joriy qilish g'oyasini qayta shakllantirgan. Faqatgina, Nabahoniy ushbu g'oyani kengroq talqin qilib, barcha musulmon mamlakatlarini birlashtiruvchi, «yagona xalifalik» davlatini barpo qilish nazariyasini ilgari surgan. Tashkilotga 1953-1979 yillarda Taqiyuddin Nabahoniy, 1979-2003-yillarda Abdulqadim

Zallum rahbarlik qilgan. 2003 yildan Ato Abu Rushta (Abu Yosin) nomli, asli Falastinlik bo'lgan shaxs boshchilik qilmoqda. {2:234-235}

Uzun soqollilar: Diniy-ekstremistik oqimi Asilbek Og'aynim (Pele), [12.03.2023 15:23] a'zolari asosan Toshkent shahri, viloyati va Qozog'iston davlatining Chimkent viloyati xududidagi aholi orasida o'z qarashlarini singdirishga uringanlar. Ular kishilarni moddiy rag'batlantirish asosida jamiyatni islomlashtirishni maqbul deb hisoblaydilar. Bu jinoiy uyushmaning qilmishlari ham tergovda to'la fosh etilgan. {2:45-46}

Ko'rinib turibdiki hozir keltirib o'tilgan bu firqalarning maqsadi har qanday vaziyatda bo'lsin, zarar yetkazish va insonlar ongini o'zlarining fitnali g'oyalari bilan tahlikaga solishdir. Biz avvalo keltirib o'tilgan Ahli sunna-val jamoani asl g'oya va maqsadlarini, ular haq ekanliklarini anglab yetgan kishigina boshqa adashgan firqalarga o'zida sog'lom imunitet hosil qila olgan bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda inson turli dinlarni oqimiga tushib qolishdan saqlanishining eng yaxshi yo'li, bu avvalo o'z aqidasi yaxshi bilishi va aqidada sobit qadam bo'lishidir. Chunki firqalar juda ham ko'p. Dinning asl mohiyatini bilmaydigan inson ularning o'rgimchak to'riga osonlikcha ilinishi hech gap emas. Ahli Sunna val-Jamoa doim ularni har bir harakatini hisobga olgan holda ularga raddiyalar berib kelgan va doim o'z yo'lida, maqsadida qoyim va sobit turib kelayotganini bilib olishimiz mumkin

Manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Islomdagi mazhablar va oqimlar o'quv qo'llanma /S.Saidjalolov; mas'ul muharrir A.Hasanov; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent Islom universiteti, - Toshkent ; 2012 – 128b.
2. T-83 Tulepov, Aydarbek Islom va aqidaparast oqimlar. Ikkinchi nashr
3. / Mas'ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur. – T.: «Sharq», 2013. - 336b
4. M-96 SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUF Aqoid ilmi va unga bog'liq masalalar ,T ;«Hilol-nashr», 2019, - 376 b.